

Quyonlarni Go‘Shtga Boqishda Zaharlanishlarni O‘Rganish Natijalari

Dagarov Sulton Sodiq O’g’li Magistr,

Ibragimov Furqat Buriyevich Ilmiy Raxbar,

Ibragimov Farxod Moripovich Mustaqil Izlanuvchi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti


Annotatsiya: ushbu maqolada ratsiondagi minerallar bilan zaxarlangan quyonlarni etologik va qon ko‘rsatkichlari tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pestisid, xlororganik, retikuloendotelial, biokimyoviy, filtrat, ratsion, oqsil, omuxta yem, vitamin, gidrolizat, metabolik, hazmlanish.

Kirish. Respublikamiz aholisining oziq ovqatga shu bilan bir qatorda go‘sht va go‘sht mahsulotlariga talab ortib borayotgan bugungi kunda quyonchilik soxasining samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masala xisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi 29-sonli “Respublikada quyonchilik sohasini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Respublikada quyonchilik sohasini sanoat usulida yanada rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmini oshirish, sohada import qilinayotgan mahsulotlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish kabi masalalarga to‘xtalib o‘tilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda quyonchilik bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ahamiyati kattadir.

Adabiyot ma’lumotlaridan ma’lumki zaharlangan hayvonlar go‘shti tarkibida yetilish va fermantatsiya jarayonlari normal holatda kechmaydi. Bu paytda go‘sht to‘qima hujayralari o‘z-o‘zidan yumshoq holatga kiradi va xujayralarni gistologik strukturasi o‘zgarishi natijasida to‘qimalarni bir-biridan ajratib olish imkonni bo‘lmay qoladi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, o‘lgan yoki majburan so‘yilgan hayvonlarni 50% agroximikatlar bilan zaharlanishdan, 30% - esa sifatsiz ozuqalar bilan oziqlanishdan, 20% - yaylovdagi zaharli o‘simliklar bilan zaharlanishdan nobud bo‘lmoqda. Buning natijasidan katta iqtisodiy zarar ko‘rilmoxda. [3] Zaharlangan quyonlarning rezistentligi pasayadi, zaharli moddalarning ta’siridan ichaklarning retikuloendotelial to‘sigi qamrab qo‘yiladi, buning natijasida ichakning ichidagi mikroflorasini butun organizmiga tarqalishiga sharoit yaratiladi va ikkinchi darajali sekundar patogen mikroblar uchun imkoniyat tug‘iladi. Bu holatdagi go‘shtlarni kishilar iste’mol qilganda, kishilarda ichak infeksiyasini paydo bo‘lishiga va ularning ichida eng havflisi salmanellyozning oqibati natijasida hosil bo‘ladigan toksikoinfeksiya hisoblanadi.[4] Hozirgi kunda go‘sht yetishtirish soxasida arzon va yuqori mahsulot olinadigan ozuqa ratsionlaridan foydalanish ommalashmoqda.

Sh.Z.Dolimov (2008) ma’lumotlariga qaraganda bo‘rdoqiga boqish davrida yemni to‘la iste’mol qilib yuborishlari uchun biroz sho‘rroq suv bilan sug‘orilsa ishtahalari yaxshi ochiladi. Demak yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib O‘zbekistonda quyonlarni oziqlantirish va sifatli go‘sht yetishtirish to‘g‘risida tadqiqotlar olib borilmagan. Shunday ekan quyonlarni tez yetiltirish, aholi iste’moli uchun sifatlari go‘sht ishlab chiqarish uchun kuzatish va tajriba ishlari amalga oshirilishini keng yo‘lga qo‘yish dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, quyonlarni oziqlantirish uchun berilayotga turli xildagi omuxta yemlar, minerallar, vitamin va oqsilli preparatlar zaharlanish holatlarini keltirib chiqarmoqda.



Material va metodlar. Tadqiqotlarimizning eksperimental qismi Samarqand viloyatining “Tarnov - sabzavotlari” va Qashqadaryo viloyatining “Diyorbek imkonni rabbits” MChJ Shaxrisabz quyonchilik klasteridagi 20 bosh 2 oylik “Xikol” zotli quyonlarda o’tkazildi. Quyonlarda osh tuzidan zaxarlanish omixta yemlar tarkibida osh tuzining miqdori me’yordan ortiqcha bo’lganda va hayvonlarga uzoq muddat mineral qo’shimchalar berilmagan hollarda hamda sug’orish chegaralanganda kuzatiladi. Tuzni iste’mol qilish miqdori 1 kg tirik vazn uchun 0,1 g yoki rasionning 100 g quruq moddasiga 0,24-0,28 g ni tashkil qiladi. Fermer xo’jaligi sharoitida retsept bo'yicha tayyorlangan omuxta yemni 30 dan 135 kungacha bo’lgan yosh quyonlarni boqish uchun ishlatalish tavsija etiladi. Uning tarkibi quyidagicha (%): o’simlik uni - 30, jo’xori yoki bug’doy doni -19, arpa yoki makkajo’xori doni -19, bug’doy kepagi -15, kungaboqar yoki soya **shroti** yoki kunjarasi -13, baliq yoki go’sht uni -2, gidrolizlangan xamirturush -1, osh tuzi -0,5, suyak uni -0,5. bo’lishi zarur. Quyonlarni mineral moddalar bilan qo’shimcha oziqlantirishda me’yordan oshganda zaharlanish holatlari kuzatiladi. Tajriba uchun olingan quyonlarning birinchi guruhibiga osh tuzini bir kunlik iste’moli uchun 1.5 gr berildi, nazorat guruhibiga esa 0.5 gr dan berilib kuzatib borildi. Tajriba va nazorat guruhibagi quyonlar kuzatish, o’lhash hamda tirik vazn nazorati orqali doimiy nazorat qilib borildi. Tajribadagi quyonlarni umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan umumiy holat, ishtaha, semizlik darajasi, tashqi ta’sirlarga javob reaksiyasi, shilliq pardalar, teri qoplamasи, teri va harakat a’zolari holati aniqlandi. Tajribalar 45 kun davom etishi prognoz qilinib, 30 kunlik natijalar tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlarimizning dastlabki bosqichida quyonlar tirik vazni, ko’krak qafasi aylanasi, yelka uzunligi o’lchab olinib dastlabki ko’rsatkichlar yozib olindi va guruhlarga ajratildi. Tajriba guruhibining bir kunlik iste’mol qiladigan suv miqdori hisobga olinib, bir kunda bir bosh quyon uchun 1.5 gr osh tuzi qo’shib berildi. Nazorat guruhibiga esa ushbu miqdor 0.5 gr ni tashkil etdi. Oziqlantirish uchun yem va suv nazorat hamda tajriba guruhlari uchun bir xil miqdorda berib borildi.

Tajribalarimiz davomida oziqlanish va saqlash sharoitlari bir xil bo’lishiga qaramasdan nazorat va tajriba guruhlaridagi quyonlarning etologik xulq atvor xususiyatlari farq qilishi aniqlandi.

Quyonlarning etologik harakatlari vaqtli, min

Bir sutkadagi quyonlarning harakatlari	Guruhi	
	Nazorat	Tajriba
Dam olishi: jami	976	1004
-turishi	152	161
-yotishi	824	843
Oziqlanishi	304	285
Suv ichishi	4	5
Harakati	152	141

Olingan ma'lumotlarning taxlili shuni ko'rsatadiki tajriba davrida tajriba guruhibagi hayvonlar nazorat guruhibagi hayvonlarga nisbatan kamroq dam olishi, oziqlanish vaqtining uzoq davom etishi hamda harakatning davomiyligi uzoq davom etishi bilan farq qildi.

Tajribadagi va nazoratdagi quyonlar doimiy kuzatilib borildi. Tajribalarning 10-kuniga borib tajriba guruxidagi quyonlarda zaxarlanish belgilari namoyon bo’la boshladи. Jumladan ayrim quyonlarda ishtahaning yo’qolishi va chanqoqning kuchayishi, ich ketishi, holsizlanish, gandiraklash va oyoqlarning falaji kuzatildi.

Kuzatishlarimiz davomida umumiy va biokimiyoviy qon taxlillari o’tkazildi. Quyonlar qonidagi natriyning miqdori 1,5-2 marta, eritrotsitlar moqdori esa 3-5 martagacha ortganligi aniqlandi. Natriy ionlari gemoglobin tarkibidagi kaliy ionlarining o’rnini egallaganligi sababli



ko‘plab metgemoglobin hosil bo‘lganligi, oqibatda kislorod tanqisligi (to‘qima gipoksiyasi) rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Quyonlar qon ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Tajribaning boshida 60 kunlik		
Eritrotsit, $10^{12}/\text{l}$	4,48	4,52
Leykotsit, $10^9/\text{l}$	6,32	6,38
Gemoglobin, g/l	97,82	99,12
Tajribada 75 kunlik		
Eritrotsit, $10^{12}/\text{l}$	5,02	15,11
Leykotsit, $10^9/\text{l}$	6,52	8,96
Gemoglobin, g/l	101,23	87,76

Shuni ta’kidlash kerakki osh tuzining organizmga ortiqcha miqdorda tushishi qon tarkibini buzadi. Undagi bir valentli ionlar (Na^+ , K^+) ko‘payib, asab tizimining qo‘zg‘alishiga sabab bo‘ladi. Tajribadagi quyonlar so‘yilib ulardan olingan go‘sht veterinariya sanitariya jixatdan tekshirish uchun ajratib qo‘yildi..

Xulosalar. Quyonlar ratsionida organizmning kundalik ehtiyojlarini qondiradigan darajada osh tuzi bo‘lishini ta’minalash, omixta yemlargacha osh tuzi qo‘sishda quyonlar uchun me’yorni hisobga olish lozim. Uzoq muddat ratsionda osh tuzi bo‘lmaganda osh tuzini kam-kamdan qo‘sish bilan unga o‘rgatib borish, ratsionda fosfor va kalsiy miqdori hamda vitaminlarning yetarli darajada bo‘lishini ta’minalash lozim.

Zaxarlangan quyonlardan olingan go‘sht bakterioskopik, biokimiyoviy usullarda tekshirilishi hamda go‘shtdagisi o‘zgarishlar sog‘lom quyonlar go‘shtiga solishtirilib kamchiliklari aniqlanishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Ibragimov, F. M., & Bo‘ronov, A. N. (2022). TURLI OZUQALAR BERIB BOQILGAN QUYON GO‘SHTINING SIFAT TAXLILI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 102-105.
- Хушназарова, М. И., Исокулова, З. Х., & Расулов, У. И. (2023). ҚҮЁНЧИЛИК СОФ ДАРОМАД МАНБАЙДИР. SCHOLAR, 1(2), 63-67.
- Khushnazarova, M. I., & Rasulov, U. I. (2022). RABBIT VETERINARY SANITARY EXPERTISE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 21, pp. 78-83).
- Хушназарова, М. И., & Расулов, У. И. (2022). ҚҮЁН ГЎШТИНИНГ ВЕТЕРИНАРИЯ САНИТАРИЯ ЭКСПЕРТИЗАСИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 21, pp. 78-83).
- Achilov, O., Ibragimov, F., Boysinova, N., & Abdurakhmanova, N. (2021). Impact of echinococcosis on beef quality in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 260-268.
- Нематуллаева А. Б., Ибрагимов Ф. М., Суюнов Р. У. ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНАЯ ЭКСПЕРТИЗА ГОВЯДИНЫ ВЫПУСКАЕМОЕ ДЛЯ ПОТРЕБЛЕНИЯ // Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 55-61.
- Boysinovna, B. N., Burievich, I. F., & Shuxratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 845-849.



8. Ibragimov, F., Suyunov, R., & Ilyosov, Z. (2023). BALIQ GO ‘SHTINI VETERINARIYA SANITARIYA JIXATDAN BAXOLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(1 Part 1), 122-126.
9. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.
10. Ibragimov, F. B., Ilyasov, Z. I., & Ibragimov, F. M. (2023). VETERINARY SANITATION OF FISH MEAT QUALITY ASSESSMENT OF ASPECTS.
11. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.
12. Ачилов, О., Ибрагимов, Ф. Б., Рузимов, М., & Асомиддинов, У. (2022). ЭХИНОКОККОЗ БИЛАН ЗАРЛАНГАН ҚҮЙ ГҮШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЭКСПЕРТИЗАСИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI*, 70-73.
13. Do'skulov, V. M., Ibragimov, F. M., & Mamadullaev, G. X. (2022). QORAMOLLARDA TUBERKULOZ KASALLIGIDA OLINADIGAN MAXSULOTLARNING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(7), 18-20.
14. Муродов, С., Ачилов, О., & Асомиддинов, У. (2022). ҚОРАМОЛ ГҮШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ-САНИТАРИЯ ЖИҲАТДАН БАХОЛАШ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI*, 273-277.
15. Ибрагимов, Ф., & Арзимуродова, Р. (2022). Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш давр талаби. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 369-374.
16. Boysinovna, B. N., Burievich, I. F., & Shuxratovna, A. N. (2021). The effect of probiotics on veterinary and sanitary assessment of broiler chickens meat. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 845-849.
17. Ибрагимов, Ф. Б. (1991). *Бовисный цистицеркоз и усовершенствование мер борьбы с ним* (Doctoral dissertation, Самаркандский сельхоз. ин-т).
18. Ibragimov, F. B., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 611-614.
19. Rasulov, U. I., Bobonazarov, E., & Ilyasov, Z. I. (2021). MEASURES TO PROTECT BREEDING AND PRODUCTIVE CATTLE FROM PYROPLASMIDOSIS. *World Bulletin of Public Health*, 5, 17-18.
20. Rasulov, U. I. (2021). Measures to Protect Breeding and Productive Cattle From Parasitic Blood Diseases. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 22-23.
21. Rasulov, U. I., & Buronov, A. N. (2021). Protecting Livestock from Theileriosis. *Eurasian Medical Research Periodical*, 1(1), 28-30.
22. Расулов, У. И., Ибрагимов, Ф. Б., Камолов, Ф., & Собиров, М. (2021). Эпизоотология и распространение пироплазмидозов в Самаркандской области.
23. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2013). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов крупного рогатого скота. *Ветеринарна медицина*, (97), 379-380.
24. RASULOV, U., & BARATOV, J. Cattle Pyroplasmosis Therapy and Prevention. *JournalNX*, 6(11), 264-265.



25. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Хушназарова, М. (2022). Bozorlardagi go ‘shtning yangiliginani aniqlash usullari. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 132-136.
26. Расулов, О., Илёсов, З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Буронов, А. (2022). Qoramollarni teylerioz kasalligidan asraylik. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 129-131.
27. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Ильесов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiyozining epizootologik holati va go ‘shtning xavfsizligi va sifat ko ‘rsatkichlari. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 124-128.
28. Суюнов, Р., Ильесов, З., & Расулов, Ш. (2022). Сут ва сут маҳсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жиҳатдан баҳолаш. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 119-123.
29. Rasulov, U. I., Bobonazarov, E., & Ilyasov, Z. I. (2021). MEASURES TO PROTECT BREEDING AND PRODUCTIVE CATTLE FROM PYROPLASMIDOSIS. *World Bulletin of Public Health*, 5, 17-18.
30. Murodov, C. M., & Xolikov, S. F. (2022). BROYLER TOVUQLAR GO ‘SHTINI ORGANOLEPTIK VA LABORATORIYA USULIDA TEKSHIRISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 494-497.
31. , З., Суюнов, Р., Расулов, Ш., & Хушназарова, М. (2022). Bozorlardagi go ‘shtning yangiliginani aniqlash usullari. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 132-136.
32. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Ильесов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiyozining epizootologik holati va go ‘shtning xavfsizligi va sifat ko ‘rsatkichlari. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 124-128.
33. O'G'LIOV, XUSHNAZAROV ALISHER XUDOYBERDI. "ZAMONAVIY KATAKLARDA QUYONLARNI BOQISH USULLARI." EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES (2023).